

2024/2025 o‘quv yilida muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha respublika ko‘rik tanlovlarini o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom 2024/2025 o‘quv yilida muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha “Eng yaxshi g‘oya”, “Eng yaxshi loyiha” hamda “Eng yaxshi ixtiro” respublika ko‘rik tanlovlarini (keyingi o‘rinlarda - Tanlov) tashkil etish, g‘oliblarni aniqlash hamda rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur tanlov doirasida arizalarni qabul qilish va uni yuqori saviyada o‘tkazishga O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) mas‘ul hisoblanadi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

G‘oya - ilmiy-innovatsion xarakterga ega fikr yoki taklif asoslangan holda prototip holatiga keltirilgan yangilikni anglatadi. Bu biror muammoni hal qilishga yoki mavjud jarayonni yaxshilashga qaratilgan konseptual yondashuv bo‘lishi lozim. G‘oya odatda boshlang‘ich bosqichda bo‘ladi va amaliy qo‘llash darajasiga yetmagan bo‘ladi.

Loyiha - g‘oya bosqichidan keyingi daraja bo‘lib, unda g‘oya amalga oshirish uchun aniq rejalashtirilgan, hujjatlashtirilgan shaklda ifodalanadi. Loyihada aniq biznes-reja, maqsadlar, resurslar, vaqt jadvali, bosqichlar va ehtiyojlar belgilab qo‘yiladi. Loyihalar g‘oya asosida quriladi, lekin ular aniq rejalashtirilgan va amalga oshirish uchun aniq yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Ixtiro - amaliyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan mahsulot, qurilma yoki texnologiyani yaratishni anglatadi. Ixtirolar odatda maxsus testlardan o‘tgan va patentlangan obyektlar hisoblanadi. Shuningdek, ixtirolar O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonunida ko‘rsatilgan shartlar va talablarga muvofiq bo‘lishi lozim.

Muhandislik - tabiiy fanlar, matematika va texnologiyalarning nazariy va amaliy jihatlarini qo‘llab, inson ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ilmiy va ijodiy faoliyat sohasi hisoblanadi. U murakkab texnik tizimlarni yaratish, ishlab chiqish, boshqarish va takomillashtirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Muhandislik yo‘nalishlari - muhandislik sohasining asosiy yo‘nalishlari mexanik muhandislik (mexanik tizimlar va uskunalarni yaratish), elektr muhandisligi (elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash), kompyuter muhandisligi (kompyuter tizimlari va dasturiy ta‘minotlarini yaratish), qurilish muhandisligi (inshootlar, ko‘priklar va yo‘llar qurilishi) hamda kimyo muhandisligi (kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlari va moddalarni qayta ishlash) hisoblanadi.

“Eng yaxshi g‘oya” ko‘rik tanlovi - muhandislik sohasida ilmiy-innovatsion xarakterga ega bo‘lgan ijodiy g‘oyalarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan tanlov hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda ishtirokchilar

hali amaliyotga joriy etilmagan, lekin texnologiya yoki muhandislik jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi konseptual g'oyalar asosida ishlab chiqilgan prototiplarni taqdim etadilar. Ko'rik tanlovning maqsadi innovatsion fikrlarni keng ommaga yetkazish, yosh muhandislar orasida ijodiy yondashuvni rag'batlantirish va ilg'or g'oyalarni amaliy loyihalarga aylantirishdir.

“Eng yaxshi loyiha” ko'rik tanlovi - muhandislik yo'nalishidagi tayyor yoki loyihalash bosqichida bo'lgan innovatsion ishlanmalarni aniqlash va rag'batlantirishga qaratilgan tanlov hisoblanadi. Bu yo'nalish doirasida ishtirokchilar o'z loyihalarini texnik yechimlar, iqtisodiy samaradorlik va amaliy joriy etilish imkoniyatlari bilan taqdim etadilar. Loyihalar yangi mahsulotlar, texnologik jarayonlar yoki muhandislik sohasida mavjud jarayonlarni takomillashtirishni o'z ichiga olishi mumkin. Ko'rik tanlov qatnashchilardan loyiha tavsifi, uning texnik jihatlari, asosiy afzalliklari va raqobatbardoshligini ko'rsatishni talab etadi.

“Eng yaxshi ixtiro” ko'rik tanlovi - muhandislik sohasida yangilik sifatida joriy etilgan va amaliyotda qo'llashga tayyor bo'lgan ixtirolarni aniqlashga qaratilgan tanlov hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda ishtirokchilar tomonidan ishlab chiqilgan va amalda ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan texnologiyalar, mahsulotlar yoki qurilmalar namoyish etiladi.

Ishtirokchi - Muhandislik yo'nalishlari bo'yicha o'zining g'oyasi, loyihasi yoki ixtiro si bilan tanlovda ishtirok etish uchun ariza topshirgan, 40 yoshdan oshmagan professor-o'qituvchilar, talabalar hamda amaliyotchi muhandislari.

Tanlovning:

“Talabalar” kategoriyasida oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat hamda magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar;

“Professor-o'qituvchilar” kategoriyasida oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilar;

“Amaliyotchi muhandislar” kategoriyasida doktorantlar, oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarning tadqiqotchilari, ishlab chiqarish korxonalari va texnoparklar kabi sanoat tashkilotlarining mutaxassislari ishtirok etadi.

Texnik ekspertiza - ko'rik tanlovga taqdim etilgan ariza hujjatlarini ushbu Nizom hamda tanlov talablarga muvofiqligi bo'yicha tekshirish jarayoni.

Ishchi guruh - tanlov doirasida taqdim etilgan g'oya, loyiha, ixtirolar shakliy, mazmuniy, texnik, iqtisodiy va amaliy jihatdan asoslanganligi bo'yicha dastlabki saralash bosqichidan o'tkazuvchi hamda yakuniy bosqichga yo'naltirish maqsadida tegishli vazirliklar, idoralar hamda tarmoq korxonalari vakillaridan tuziladigan mutaxassislar tarkibi.

Tanlov komissiyasi - tanlov doirasida taqdim etilgan g'oyalar, loyihalar va ixtirolarni ko'rib chiqish, baholash va g'oliblarni aniqlash maqsadida tegishli vazirliklar, idoralar, tarmoq korxonalari hamda xorijiy tashkilotlar vakillaridan tuziladigan komissiya tarkibi.

2-bob. Tanlovga qabul qilinadigan g‘oya, loyiha va ixtiroga hamda ishtirokchilarga qo‘yiladigan umumiy talablar

4. Tanlov quyidagi 3 ta kategoriyaning har birida 3 ta yo‘nalishda o‘tkaziladi:

Talabalar o‘rtasida:

“Eng yaxshi g‘oya” yo‘nalishi;

“Eng yaxshi loyiha” yo‘nalishi;

“Eng yaxshi ixtiro” yo‘nalishi.

Professor-o‘qituvchilar o‘rtasida:

“Eng yaxshi g‘oya” yo‘nalishi;

“Eng yaxshi loyiha” yo‘nalishi;

“Eng yaxshi ixtiro” yo‘nalishi.

Amaliyotchi muhandislar o‘rtasida:

“Eng yaxshi g‘oya” yo‘nalishi;

“Eng yaxshi loyiha” yo‘nalishi;

“Eng yaxshi ixtiro” yo‘nalishi.

5. Tanlovga muhandislik sohasida taklif etilayotgan, aniq muammolarni yechimiga qaratilgan, ilmiy-innovatsion yangiligi mavjud, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va samaradorligi ko‘rsatilgan kreativ g‘oyalar, loyihalar va ixtirolar qabul qilinadi.

6. Vazirlik tanlov e‘lonida g‘oya, loyiha va ixtiroga qo‘yiladigan talablar, arizalarni shakllantirish, ro‘yxatdan o‘tkazish va topshirish tartiblari hamda muddatlari ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni taqdim etadi.

Tanlovda ishtirok etishga onlayn ariza yuborish axborot tizimidan foydalanish bo‘yicha reglament Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

7. Tanlov ishtirokchilari tomonidan arizalar belgilangan talablarga muvofiq shakllantirilgan bo‘lishi lozim, shuningdek, ularning mazmuni, maqsadi, dolzarbligi va samaradorligi bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumotlar, agar mavjud bo‘lsa, texnik chizmalar, konseptual grafikalar yoki modellar, tadqiqot materiallari, chop etilgan ilmiy maqolalar, patentlar taqdim etilishi lozim.

8. Tanlovda g‘olib deb topilgan g‘oya, loyiha va ixtirolar navbatdagi tanlovlarda ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

9. Tanlovda g‘olib deb topilgan professor-o‘qituvchilar, talabalar, amaliyotchi muhandislar navbatdagi tanlovlarda yangi (avval g‘oliblikni qo‘lga kiritgan g‘oya, loyiha va ixtirolar bilan bir xil bo‘lmagan) g‘oya, loyiha va ixtirolar bilan ishtirok etishi mumkin.

10. Tanlovda 40 yoshdan oshmagan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblangan professor-o‘qituvchilar, talabalar hamda amaliyotchi muhandislar yakka tartibda ishtirok etadi.

Har bir ishtirokchi Tanlovning faqatgina bir yoʻnalishida ishtirok etishi mumkin.

3-bob. Tanlov komissiyasi va ishchi guruh faoliyatini tashkil etish tartibi

11. Ishchi guruh tarkibi Vazirlik tomonidan turli vazirlik, idoralar, oliy taʼlim va ilmiy tadqiqot tashkilotlari bilan kelishuv asosida kamida 7 nafar toq sonli aʼzolaridan iborat tarkibda tuziladi.

Ishchi guruh tarkibi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

12. Ishchi guruhning asosiy vazifasi Tanlovdagi texnik ekspertiza bosqichidan muvaffaqiyatli oʻtgan gʻoya, loyiha va ixtirolar shakliy va mazmuniy jihatdan dastlabki saralash bosqichida koʻrib chiqish, shuningdek, texnik, iqtisodiy va amaliy jihatdan asoslanganligi baholash va yakuniy bosqichga oʻtkazish hisoblanadi.

13. Tanlov komissiyasi va Ishchi guruh Tanlovda ishtirok etayotgan gʻoya, loyiha va ixtiro yoʻnalishlari uchun alohida tarkibda tuziladi.

14. Tanlov komissiyasi tarkiblari oʻz yoʻnalishida kamida 5 yil mehnat tajiga ega boʻlgan yuqori malakali (turli vazirlik, idoralar, oliy taʼlim va ilmiy tashkilotlar, xususiyl sektor va xorijiy tashkilotlar vakillaridan ham kelishuv asosida jalb etilishi mumkin) kamida 7 nafar toq sonli aʼzolaridan iborat tarkibda tuziladi hamda Tashkiliy qoʻmita raisi (uning yoʻqligida rais oʻrinbosari) tomonidan tasdiqlanadi.

15. Tanlov komissiyasi tarkiblariga raislik qilish vazifasi kamida vazir oʻrinbosari darajasidagi rahbarga yuklatiladi. Tanlov komissiyasi tarkiblarining faoliyatini masʼul kotib tashkil etib boradi.

16. Tanlov komissiyasi majlisi, unda Tanlov komissiyasi aʼzolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnoma aʼzolar tomonidan kelishiladi hamda rais (uning yoʻqligida rais oʻrinbosari) va kotib tomonidan imzolanadi.

Tanlov komissiyasi majlislari ochiq muhokama shaklida tashkil etiladi.

17. Tanlov komissiyasi hamda Ishchi guruhning xar bir aʼzosiga tanlov yakuni boʻyicha erishilgan natijalarga muvofiq tanlov uchun ajratilgan mablagʻlar hisobidan mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdorining 5 baravari miqdorida bir martalik mukofot puli (barcha soliq va majburiy toʻlovlar ushlab qolingan holda bir yoʻla toʻlanadigan) beriladi.

Mukofot pulini berish (tayinlash) Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrugʻiga muvofiq amalga oshiriladi.

4-bob. Tanlovni tashkil etish tartibi

18. Vazirlik Tanlovni tashkil etish va o'tkazish yuzasidan tegishli buyruqni qabul qiladi.

19. Vazirlik o'z rasmiy veb-saytida tanlov to'g'risida e'lon beradi. Unda arizalarni shakllantirish, ro'yxatdan o'tkazish va topshirish tartibi, muddati va talablari ko'rsatiladi.

20. Tanlovga arizalar onlayn platforma orqali qabul qilinadi.

21. Tanlov e'loni hamda tanlov to'g'risidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritiladi.

22. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish ushbu Nizomga 1-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

5-bob. Tanlovga kelib tushgan g'oya, loyiha va ixtirolarni ko'rib chiqish, baholash va g'oliblarni aniqlash tartibi

1-§. Tanlovga kelib tushgan arizalarni texnik ekspertizadan o'tkazish tartibi

23. Tanlovga qabul qilingan g'oya, loyiha va ixtiro hujjatlarining texnik ekspertizasi Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi. Texnik ekspertizani o'tkazish muddati arizalarni qabul qilish tugagan kundan boshlab o'ttiz kundan oshmasligi kerak.

24. Texnik ekspertiza taqdim etilgan hujjatlarning Vazirlik tomonidan tasdiqlangan talablarga muvofiqligini, shuningdek, loyiha hujjatlariga ko'ra taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qilishda xatolarni aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

25. Texnik ekspertiza quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

arizaga ilova qilingan shakllarning to'liqligi va to'g'riligini, zarur imzo, muhr va shtamplarning mavjudligini tekshirish;

Ariza hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirish, texnik xatolar va noaniqliklar yo'qligini tekshirish.

26. Ariza hujjatlari bo'yicha texnik ekspertizaning ijobiy xulosasi bo'lgan taqdirda, hujjatlar to'plami dastlabki saralash bosqichida ko'rib chiqish uchun Ishchi guruhga taqdim etiladi.

2-§. Texnik ekspertizadan o'tgan arizalarni dastlabki saralash bosqichida ko'rib chiqish tartibi

27. Dastlabki saralash bosqichi Vazirlik tomonidan turli vazirlik, idoralar, ilmiy va ilmiy tadqiqot tashkilotlari bilan kelishuv asosida tuzilgan Ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

28. Mazkur bosqichda Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan g'oya, loyiha va ixtirolar shakliy va mazmuniy jihatdan ko'rib chiqiladi, texnik, iqtisodiy va amaliy jihatdan asoslanganligi baholanadi hamda quyidagi yo'nalishlarning har biridan 10 nafardan eng yuqori natijaga erishgan ishtirokchilar yakuniy bosqichga o'tkaziladi.

Talabalar o‘rtasida:

“Eng yaxshi g‘oya” yo‘nalishida – 10 nafar;

“Eng yaxshi loyiha” yo‘nalishida – 10 nafar;

“Eng yaxshi ixtiro” yo‘nalishida – 10 nafar.

Professor-o‘qituvchilar o‘rtasida:

“Eng yaxshi g‘oya” yo‘nalishida – 10 nafar;

“Eng yaxshi loyiha” yo‘nalishida – 10 nafar;

“Eng yaxshi ixtiro” yo‘nalishida – 10 nafar.

Amaliyotchi muhandislar o‘rtasida:

“Eng yaxshi g‘oya” yo‘nalishida – 10 nafar;

“Eng yaxshi loyiha” yo‘nalishida – 10 nafar;

“Eng yaxshi ixtiro” yo‘nalishida – 10 nafar.

29. Dastlabki saralash bosqichi quyidagi baholash mezonlari asosida o‘tkaziladi:

g‘oya, loyiha va ixtirolar mazmuniy jihatdan to‘liq yoritib berilganligi – 20 ballgacha;

g‘oya, loyiha va ixtirolarga oid texnik chizmalar, konseptual grafikalar yoki modellar taqdim etilganligi – 10 ballgacha;

taklif etilayotgan g‘oya, loyiha va ixtirolarning dolzarbligi, amalga oshirish imkoniyatlari tahliliy ma’lumotlar asosida yoritib berilganligi – 20 ballgacha;

taklif etilayotgan g‘oya, loyiha va ixtirolarni amalga oshirish uchun zarur mablag‘larni mablag‘larning aniq va asoslangan hisob-kitob qilinganligi – 10 ballgacha;

taklif etilayotgan g‘oya, loyiha va ixtirolarni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi tahliliy ma’lumotlar asosida yoritib berilganligi – 20 ballgacha;

taklif etilayotgan g‘oya, loyiha va ixtirolarning zamonaviyligi, raqobatbardoshligi, amaliyotga joriy etish ehtimoli va texnik tayyorligi – 20 ballgacha.

30. Ishchi guruh a’zolari baholash mezonlariga asosan g‘oya, loyiha va ixtirolarni 100 ballik tizimdan foydalangan holda baholaydi, bunda 0 ball eng past baho va 100 ball eng yuqori baho hisoblanadi. Ishchi guruh a’zolarining baholari yig‘ilish bayonnomasida qayd etiladi.

Ishchi guruh tomonidan g‘oya, loyiha va ixtirolarning yakuniy ballari Ishchi guruh a’zolari ballarining o‘rtacha arifmetik qiymati bilan belgilanadi.

Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilarning yakuniy ballari bir xil bo‘lgan hollarda g‘oliblar Tanlov komissiyasi a’zolari tomonidan ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

31. Dastlabki saralash bosqichi Ishchi guruh yig'ilishi tarzida tashkil etiladi hamda Ishchi guruh tomonidan qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Zarur hollarda, Ishchi guruh yig'ilishida davomida tanlov ishtirokchilari tomonidan muhandislik yo'nalishida g'oya, loyiha va ixtirolarning himoyasi (taqdimot ko'rinishidagi prezentatsiya) o'tkaziladi.

3-§. Tanlovning yakuniy bosqichida arizalarni baholash va g'oliblarni aniqlash tartibi

32. Tanlovning yakuniy bosqichi Tanlov komissiyasi tomonidan ochiq muhokama shaklida tashkil etiladi.

33. Tanlov komissiyasi zarur holatlarda, taqdim etilgan g'oya, loyiha va ixtirolar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar, taqdimotlar talab etishi va ularni o'rganishda tegishli mutaxassislarni jalb qilishi mumkin.

34. Tanlovning yakuniy bosqichida Tanlov ishtirokchilari Tanlov komissiyasi oldida o'z g'oya, loyiha va ixtirolarining taqdimot (prezentatsiya) ko'rinishida himoyasini o'tkazadilar.

35. Taqdimot himoyasida Tanlov ishtirokchilari o'z g'oya, loyiha va ixtirolarini qisqa, lo'nda va asoslangan holda ochib berishi hamda puxta tayyorgarlik ko'rgan holda ishtirok etishlari talab etiladi.

36. Tanlov komissiyasi taqdimot natijalariga asosan yakuniy xulosa tayyorlashda ushbu Nizomga 2-ilovada keltirilgan baholash mezonlariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Bunda, Tanlovning "Eng yaxshi g'oya", "Eng yaxshi loyiha", "Eng yaxshi ixtiro" yo'nalishlaridagi arizalar alohida baholash mezonlari bo'yicha baholanadi.

37. Tanlov komissiyasi a'zolari baholash mezonlariga asosan g'oya, loyiha va ixtirolarni 100 ballik tizimdan foydalangan holda baholaydi, bunda 0 ball eng past baho va 100 ball eng yuqori baho hisoblanadi. Tanlov komissiyasi a'zolarining baholari yig'ilish bayonnomasida qayd etiladi.

38. Tanlov komissiyasi tomonidan g'oya, loyiha va ixtirolarning yakuniy ballari Tanlov komissiyasi a'zolari ballarining o'rtacha arifmetik qiymati bilan belgilanadi.

39. Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilarning yakuniy ballari bir xil bo'lgan hollarda g'oliblar Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi.

40. Yakuniy ballar asosida g'oliblarni aniqlash quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

Talabalar o'rtasida:

"Eng yaxshi g'oya" yo'nalishida eng yuqori yakuniy ballni qo'lga kiritgan dastlabki uchta o'rin sohiblari ushbu yo'nalish g'oliblari deb topiladi.

“Eng yaxshi loyiha” yo‘nalishida eng yuqori yakuniy ballni qo‘lga kiritgan dastlabki uchta o‘rin sohiblari ushbu yo‘nalish g‘oliblari deb topiladi.

“Eng yaxshi ixtiro” yo‘nalishida eng yuqori yakuniy ballni qo‘lga kiritgan dastlabki uchta o‘rin sohiblari ushbu yo‘nalish g‘oliblari deb topiladi.

Professor-o‘qituvchilar o‘rtasida:

“Eng yaxshi g‘oya” yo‘nalishida eng yuqori yakuniy ballni qo‘lga kiritgan dastlabki uchta o‘rin sohiblari ushbu yo‘nalish g‘oliblari deb topiladi.

“Eng yaxshi loyiha” yo‘nalishida eng yuqori yakuniy ballni qo‘lga kiritgan dastlabki uchta o‘rin sohiblari ushbu yo‘nalish g‘oliblari deb topiladi.

“Eng yaxshi ixtiro” yo‘nalishida eng yuqori yakuniy ballni qo‘lga kiritgan dastlabki uchta o‘rin sohiblari ushbu yo‘nalish g‘oliblari deb topiladi.

Amaliyotchi muhandislar o‘rtasida:

“Eng yaxshi g‘oya” yo‘nalishida eng yuqori yakuniy ballni qo‘lga kiritgan dastlabki uchta o‘rin sohiblari ushbu yo‘nalish g‘oliblari deb topiladi.

“Eng yaxshi loyiha” yo‘nalishida eng yuqori yakuniy ballni qo‘lga kiritgan dastlabki uchta o‘rin sohiblari ushbu yo‘nalish g‘oliblari deb topiladi.

“Eng yaxshi ixtiro” yo‘nalishida eng yuqori yakuniy ballni qo‘lga kiritgan dastlabki uchta o‘rin sohiblari ushbu yo‘nalish g‘oliblari deb topiladi.

6-bob. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash va rag‘batlantirish tartibi

41. Tanlov komissiyasi xulosasiga asosan yakuniy ballari eng yuqori hisoblangan ishtirokchilar ro‘yxati shakllantiriladi hamda Tashkiliy qo‘mita raisi (uning yo‘qligida rais o‘rinbosari) tomonidan g‘oliblar ro‘yxati tasdiqlanadi:

Bunda:

Har bir yo‘nalish bo‘yicha birinchi o‘rin g‘olibi deb topilgan jami to‘qqiz nafar g‘oliblar elektromobil bilan taqdirlanadi;

Har bir yo‘nalish bo‘yicha ikkinchi o‘rin g‘olibi deb topilgan jami to‘qqiz nafar g‘oliblar rivojlangan xorijiy davlatlarga stajirovkalarga yuboriladi;

Shuningdek, Tanlov komissiyasi tavsiyasi va Tashkiliy qo‘mita qaroriga muvofiq “Barqaror rivojlanish uchun eng yaxshi g‘oya/loyiha/ixtiro” nominatsiyasida g‘olib deb topilgan yana bir nafar ishtirokchisi ham rivojlangan xorijiy davlatlarga stajirovkalarga yuboriladi.

Ushbu nominatsiya g‘olibi ekologiya va atrof-muhitni asrash bo‘yicha muhandislik ishlanmalari (g‘oya/loyiha/ixtiro) orasidan aniqlanadi. Bunda, har bir yo‘nalishda dastlabki uchta o‘rinlarni egallagan g‘oliblardan so‘ng eng yuqori ball to‘plagan bir nafar ishtirokchi g‘olib deb topiladi.

Har bir yo‘nalish bo‘yicha uchinchi o‘rin g‘olibi deb topilgan jami to‘qqiz nafar g‘oliblar har biri bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravari miqdorida bir martalik pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Bir martalik pul mukofotlari uchinchi o'rin g'oliblari faoliyat ko'rsatayotgan yoki tahsil olayotgan tashkilotning byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga moliyalashtirish orqali o'tkazib beriladi.

42. Rivojlangan xorijiy davlatlarga stajirovkalar Vazirlik tomonidan tashkil etiladi.

Bunda, stajirovkalar o'tkaziladigan tashkilotlar, uning muddatlari, davomiyligi, dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

43. Stajirovkalarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq quyidagi xarajatlar Vazirlikning Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanadi:

stajirovkalarga yuboriluvchilar faoliyat ko'rsatayotgan yoki tahsil olayotgan tashkilot hamda stajirovkalarga qabul qiluvchi xorijiy tashkilotlar o'rtasida stajirovkalarni tashkil etish bo'yicha tuziladigan shartnomalarda ko'rsatiladigan xarajatlar (zarur hollarda);

stajirovkalar tashkil etiluvchi xorijiy davlatlarning viza hujjatlarini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlar (zarur hollarda);

xorijiy davlatlarga borib-kelish bilan bog'liq (aviachipta, yashash, kunlik, xorijiy davlatlardagi ichki transport) xarajatlar;

sug'urta xarajatlari.

44. Stajirovkalar bilan bog'liq xarajatlar uchun ajratilgan mablag'lar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'iga asosan stajirovkalarga yuboriluvchilar faoliyat ko'rsatayotgan yoki tahsil olayotgan tashkilotning byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga moliyalashtirish orqali o'tkazib beriladi.

45. Stajirovkalar davrida Vazirlik tomonidan ajratilgan mablag'lardan oqilona va maqsadli foydalanish uchun stajirovkalarga yuboriluvchilar javobgar hisoblanadi.

46. Tashkiliy qo'mita qaroriga muvofiq faol deb topilgan boshqa ishtirokchilarga tashkilotchilar va homiylar tomonidan ajratilgan esdalik sovg'alar taqdim etilishi mumkin.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

47. Tanlovda ishtirok etish ishtirokchilarning ushbu Nizomda belgilangan qoidalarga va talablarga to'liq roziligini anglatadi. Ishtirokchi ushbu Nizomda belgilangan qoidalar yoki talablarni buzishi yoki ularni to'g'ri bajarishdan bosh tortishi ishtirokchi Tanlovda qatnashishdan bosh tortishini anglatadi.

48. Stajirovka o'tash mobaynida tanlov g'oliblarining belgilangan tartibda ish joyi va lavozimi shu jumladan, o'rtacha ish haqi saqlanishi lozim.

Stajirovka o'tash mobaynida oliy ta'lim tashkilotlari talabalari tegishli fanlardan keyinchalik o'zlashtirish sharti bilan o'quv mashg'ulotlaridan ozod etiladi.

49. Tanlov komissiyasining yakuniy natijalar yuzasidan qabul qilingan qarorlari bo'yicha manfaatdor shaxslar tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

50. Tanlov g'oliblari rasman e'lon qilingandan so'ng boshqa ishtirokchilarning ariza va shikoyatlari ko'rib chiqilmaydi.

51. Tanlovni o'tkazish jarayonlari bo'yicha kelib chiqadigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

52. Mazkur nizomda tartibga solinmagan yoki tegishli o'zgartirishlar kiritish zarurati yuzaga kelgan hollarda Tashkiliy qo'mita raisi (uning yo'qligida rais o'rinbosari) tomonidan tegishli qaror qabul qilinadi.

53. Ushbu nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.